Shunday qilib, 16 asrning O‘rtalarid traktatlarga asoslanib aytish mumkinki, bu davrda feodal jamiyatida tasviriy san’atning roli xaqida g‘oya va qarashlar ustida kurash ketgan, yozuv va xattotlika esa anchagina ishlar»…metodik ko‘rsatmalar, qog‘oz rang, perolaarni tayyorlashdan tortib san’at vazifalari va o‘rgatish metodlari xam ishlab chiqilgan.

Xattotlik bo‘yicha metodik ko‘rsatmalarni Mir ali Xareviyning “Ezuv metodikasi” (Metad ul-Xutut, 16 asr) va Mir Iimad Kazainiyning “Mashqlar usullari” (Adab ul Mashk,16-17 asr) kabi ishlarida ko‘ramiz.

Xattotlik san’ati, uning materiallari, ishlash usullariga bag‘ishlangan

uslubiy ko‘rsatmalarni, traktatlarni Majnun Chipnavis (16 asr), Fatxulla ibn Axmad Maxmud (16 asr), Mustafo Ali CHalabiy kabi xattotlarida ko‘ramiz. Shu bilan bir qatorda pero tayyorlash, rang, qog‘ozni bo‘yash kabi amaliy maslaxatlarni noma’lum mualliflar (17-19 asr)lar ishlarida xam uchratish mumkin. Bu rassom-miniatyurachilar uchun noyob, foydali bo‘lib, undun ko‘pgina kerakli ma’lumotlarni olish mumkin. O‘rta asrlar rassomlari xaqida ma’lumolar, ularning tarjima – xollari va ijodlarining tavsifi Iskandar Munshiyning (16 asr oxiri) yezgan traktatida yoritgan. SHoxning xayoti va uning shajarasi xaqidagi ma’lumotlari bir qatorda u saroy rangtasvirchilari Abbos Bexzod, Sulton Muxammad,  Aka Mirak va Mo‘zaffar Alilar ishonch tugdurdilar» deb yozadi Iskandar Munshiy tabriz miniatyura rangtasviri katta ustalari So‘diqbek Afsharni sanaydi, So‘diqbek Afshan shoir va musavvir, musulmon Sharqida birinchi bo‘lib tasviriy san’at nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha traktat yozganlardan biri So‘diqbek Afsharning traktati (1597 yil Yaqin). O‘z ichiga 206 ta 2 qatorli betlarni oladi va Shu asosda rangtasvir texnikasi, naqsh san’ati va uni o‘qitish uslubiyoti bo‘yicha pedagogik maslaxatlar va metodik ko‘rsatmalar beradi (13) oldingi yozuvda tuplamlardan fark qilgan xolgan bu yerda rangtasvirning islomiy kelib chikishi tarixi xaqidagi ma’lumotlar va musavvirlarning tarjimai-xollari keltirilmagan. Bu traktat tulaligicha tasviriy va naqsh san’atining nazariyasi va amaliyotiga bag‘ishlangan. 1963 yilda rus tiliga tarjima A.Yu.Koziyev tomonida qilingan bo‘lib, Sharq miniatyurasi texnikasi, turli tuman materiallari va san’atning murakkab turi bo‘lgan miniatyura xaqida tuShunchalarini beradi. O‘rta asrlar muallifini uslubiy ko‘rsatmalari va maslaxatlari o‘quvchilar uchun kizikarli va foydalidir. Ba’zida suv bilan, ba’zida she’riy shaklida, ortikcha so‘z o‘z fikrlarini aniq va keng ifodalaydilar. Xuddiki, o‘quv u bilan uchrashib so‘zlashayotgandek bo‘ladi.

*MINIATYURA UCHUN QOGOZ VA MUYQALAM TAYYORLASH*

Miniatyurachi ishni qog‘ozni tanlashdan boshlagan. 8-9 asrlarga qadar yozuv rangtasvirni chizish uchun asos sifatida papirus, teri, charm, mato, suyak, sopol bulagi va daraxt ishlatilgan. Qog‘oz ishlab chiqarishning paydo bo‘lishi Sharq mamlakatlarida burilish yasagan. Birinchi bo‘lib 8-asrda Samarqandda, sung Xorunar Rashid davrida Bogdodda qog‘oz ishlab chiqarish boshlangan.

X-XI asrlar mobaynida qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyasi butun O‘rta Osiyo Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga tarkalgan. Yuqori sifatli qog‘oz ishlab chiqarish markazlari paydo bo‘lib, ular usha joy nomlari bilan yuritilgan: Bugdodiy, Samarqandiy, Isfaxoniy, Buxoriy, Kashmiriy va xo‘qazo.

“Xitoyi” qog‘oz navi xitoylik asrlar olib kelgan texnologiya bilan boglanadi. Buni Sulton Ali Mashxadiyning 1414 yilda yozilgan xattotlik xaqidagi “Serat as-Sutur” (Ezuv koidasi) traktati xam tasdiqlaydi.

Ipak trandisidan (los) tayyorlangan Samarqand va Buxoro navidan qog‘ozlar xam Shuxrat qozongan. Ular o‘zining mustaxkamligi, ideal o‘qligi va tekis yo‘zash bilan ajralib turadi. Qog‘ozga maxsus ishlov berib silliklangan, yaltiratilgan va ishlatilishi joyiga qarab rang berilgan. Qog‘ozni yozish uchun, bezak berish uchun yo‘qi rangtasvir uchun kraxmallangan va yaltiratganlar. Kraxmal siyox va rangni sizib utishgach, yo‘l kurmgan va o‘ziga xos grunt vazifasini egallagan. Suv va kraxmaldan pasta tayyorlaganlar va kerakli miqdorda olib kaynatganlar. Xosil bo‘lgan yarim suyuk massasini qog‘ozning xar ikkala tomoniga surtganlar. Notekisliklar va chuqurliklarni xul biror narsa bilan tekislaganlar.

Qog‘ozni soya joyda qurutganlar. Qog‘ozdagi kleystr qurigandan sung kashtan taxtasi ustida billur tuxum bilan yo‘qi boshqa yaltiratadigan predmet bilan saykal berganlar.

Sulton Ali Mashxadiy o‘zining “Serat-as-Sutur” risolasida tavsiya qiladiki:

Silliklashning boshqa usullari xam bo‘lgan-kvars, balik yoli va kraxmal bilan, yelim va tuxum o‘qi bilan va xo‘qazo. Biz juda oddiy va qulay usulni

keltirdik. Qog‘oz rangli chikishi uchun kraxmal kleystriga kerakli siyox rangni qo‘shganlar, qurigandan, jilolangandan sung qog‘ozdagi ton, yozish va dekoratik bezash uchun fon sifatida xizmat qilgan.

Qog‘ozni bo‘yash ikki usulda o‘tkazilgan: pardozlash vaqtida kraxmalli yo‘qi boshqa turdagi yelimga rangni qushish va bevosita krxmalni shimdirib bo‘yash. Bunda ustalar rangning estetikasi va odam ko‘ziga ta’sirini juda noziklik bilan sezganlar: qo‘lrang-kizgish, yashilcha-sarik rang, och binafsharang, xavorang, xavorang – yashilning past tuyinmasi va xo‘qazo kabi ranglarni tanlaganlar.

Bo‘yovchi materiallar sifatida odatda tashki ta’sirga chidamli bo‘lgan o‘simliklarlar-shafran, xino, tut daraxti, nil va yarmedyakdan foydalanganlar. Qog‘ozni sarik rangga bo‘yash uchun issiq suvga shafranni ma’lum miqdorda solib eritganlar. Xosil bo‘lgan eritmani do‘qadan utkazib qog‘ozga shimdirganlar va soya joyga ipga osib qurutganlar. Qog‘ozni qizil rangga bo‘yash uchun bakanning eritmasini qog‘ozga bir soat saqlab sung soyada qurutganlar. Agar qizil rangning qirmizi tusi kerak bo‘lsa tut daraxtining kaynatmasidan foydalanganlar va xo‘qazo.

O‘rta asrlar miniatyura ustasini tayyorlashda uning mo‘yqalam tayyorlashni bilishi xam katta o‘rin to‘tgan. Rassom mo‘yqalami yumshoq nozik detallarni chizishi uchun uchli bo‘lishi lozim. Bunday mo‘yqalamdan ornamentalli, zarxal beruvchilar xam foydalanishgan.

Ma’lumki ular mo‘yqalamni ikki oylik mushukning bo‘yin kismidagi jundan olib tayyorlaganlar, ayniksa o‘zunro‘q jun qadrlangan.

Kesib olingan junni ustalar avval issiq suvda yuvib yogsizlantirganlar, sungra xar bir tolasini chinni plastinka ustiga terib qurutganlar va yo‘nalishiga qarab tekislanganlar. Xosil bo‘lgan tutamni kesilgan joyini ip bilan kaptar patiga kirgizib boglaganlar. Tutamni dastaga boglashdan oldin kaptar pati xullangan. Pat dum tomondan olingan bo‘lib, eng o‘zuni tanlangan. Lekin, mo‘yqalam tayyorlashning boshqa yo‘llari xam bo‘lgan.

So‘diqbek Afshar o‘zining “Rangtasvir xaqida traktat” risolasida

mo‘yqalam tolasini olmaxon dumining yumshoq tolasidan olishni va dast sifatida kaptarning patiga nisbatan o‘zunro‘q qog‘oz patini olishni tavsiya etadi.

### *Miniatyura rangtasviri texnologiyasi*

Bo‘yovchi materiallar tuxumli, yelimli va lakli asosda boyo‘qlarni tashkil etadi. Ularning turli nisbatlarda tayyorlanishi miniatyura uchun asos, grunt sifatida, ayniksa lakli rangtasvir uchun xizmat qiladi.

Bizga ma’lum bo‘lgan So‘diqbek Afshar o‘zining “Jivopis xaqida traktat”risolasida quyidagicha ko‘rsatma beradi…

(xammasidan oldin) sen bilishning kerakki, grunt-bu yelimlash tuShun: (uning tarkibi) o‘simliklarlar va balik yelimi, o‘zumdan qilingan murabbo, yelimlangandan sung bu san’atda sening vositalaring, Qo‘rg‘oshinli o‘q belila va lak. Qo‘rg‘oshinli belila bilan ishning asosini to‘qi ko‘rin.

Lakning xar bir katlami aloxida kuritilgan va yaltiratilgan. Lak qo‘l kafti bilan yupqa qilib surtilgan.

Bo‘yovchi materiallar sifatida tabiiy va sun’iy pigmentlar solingan. Ular asosida yelimli, tuxumli va lakli ranglar tayyorlangan. Boglovchi modda sifatida balik yelimi, tuxum o‘qi va sandal (daraxt) laki xizmat qilgan. Ko‘pincha kvars va ko‘poros tuxum o‘qiga qo‘shilib ishlatilgan. Pigment va tuxumli asos turli nisbatlarda qo‘shilgan. Xosil bo‘lgan rang temperaturaga uxshab suv bilan qo‘shib ishlatilgan va qurigandan sung yuvilganga xam rangi ketmagan.

Tuxum o‘qi qo‘shilgan ranglar va shaffof bo‘lgan. Faqat tuxum sarigi qo‘shilgan ranglar emalga uxshash bo‘lgan. Keyincharo‘q boglovchi modda sifatida yelim qo‘llanila boshlangan, ba’zi vaqtlarda uzum shirasi va qiyo‘mi qo‘shilgan.

O‘rta asrlar pedagogi va rassomi So‘diqbek Afsharning risolasida Qo‘rg‘oshinli belila, surik, yar-mediyak(yashil), kinovar to‘k qizil, yo‘qut, (rubin) lak yelimi aralashmalar va xo‘qazolar xaqida sostavlarni tayyorlash nisbatlari xaqida xam foydali amaliy maslaxatlar berilgan. Muallif tavsiya qilgan retseptlar odatdan tashqari texnologiyasi bilan ajralib turadi.

Masalan, yar-mednyakni (yashil rang, sarik-yashildan to‘qi yashil – kukning boy gammsi (olish uchun quyidagicha maslaxat beradi: nam joydan ikki gaz chukurlikda  ura kazi va u yerga sof misning yupqa bulalarini kuy, ustidan pishmagan o‘zum sirkasini kuy to‘qi mis bulaklarni botguncha. Sungra urani kumib, bir oy kut. Bir oydan sung ochib kursangki u seni xoxlagan yar-mednyakka aylanib kolgan.

Ranglarni tasvirlash texnologiyasi rus va g‘arbiy yevropalik rassomlarnikig uxshaydi: beruvchm materialni tosh xavonchada unday bulguncha maydalanganlar, egallaganlar va boglovchi modda bilan qo‘shganlar. Keyin aralashmani o‘zo‘q vaqt dikkat bilan aralashtirganlar.

Elimli boyo‘qlar o‘zining texnologiyasiga ega bo‘lgan Miniatyura odatda balik yelimi ishlatilgan. Balik yelimi tayyorlashdan tashqari asosga yo‘qi kumush bulaklarini urnatish uchun xam xizmat qilgan. Bu yelim turli navdagi balik ichagi, pufagi, terisi va suyaklaridan olingan. U o‘zining elaktikligi, o‘zining rangini o‘zgartirmasligi bilan boglovchi modda sifatida rangtasvir uchun qulay bo‘lgan. yelimning o‘q-sarikki uxshaydi. yelimli boyo‘qlar tayyorlash quyidagicha bo‘lgan suv qo‘shilgan mineral rang aralashmasiga yelim qo‘shiladi, lekin bunda chegarani sezish kerak.

Agar yelimi kam bo‘lsa rang chidasiz, tez uchadigan, kuriganda rang o‘zgaradigan (guashdek) bo‘ladi. yelimli ko‘p qushish rang tonini o‘zgartiradi, ishlash kiyinlashadi va rang to‘liq qalin koplab baxmalsimon ton beradi va tashki ta’sirga chidamli bo‘ladi. yelimli  ranglar tayyorlash texnologiyasi va uning sostavlari qadimgi ustalarga ma’lum bo‘lgan.

«Bayan as Sanaat» (Xunarmandchilik texnologiyasi, XII asr) risolasida muallif yelimli ranglarni olish yo‘llari bo‘yicha kengaytirilgan tushuncha beradi. Masalan, lazur xavonchada maydalaniladi, sungra unga uksus va tozalangan shilim aralashmasi  qo‘shilib kuyo‘ltiriladi va ishlatiladi. Lazo‘rni yuvish kinovarni yuvishga uxshaydi. Yuviladigan ranglar yuvilmaydiganlarga nisbatan yorkin va toza bo‘ladi.

Laklar O‘rta asrlarda boyo‘qlarni tayyorlashda boglovchi modda va

rangtasvir uchun grunt sifatida keng qo‘llanilgan. Bundan tashqari laklar qog‘ozdan (pape-mashe) yogochdan tayyorlangan narsalarni, tuxumli va yelimli asosda bajarilgan miniatyura ishlarini koplash uchun xizmat qilgan. Laklar sandirak, kaxrabo, kanifol va boshqa moddalar katronidan tayyorlangan. O‘rta asrlarda ayniksa sandirakdan (SHimoliy Afrikada usuvchi daraxt) tayyorlangan lak mashxur bo‘lgan. Tayyorlash juda oddiy bo‘lgan katron yanchilgan, sungra kayno‘q zigir moyida eritilgan. Xozirgi zamon yogli rangtasvirda zigir yo‘qi lak razbavitelni olish uchun o‘qartiruvchi bo‘lib xizmat qiladi. Jivopis uchun lakka turli xil mineral moddalar tilla va kumush kukunlar qo‘shilgan.

Miniatyuralarni “xazm etishga” aslo mone’lik qilmaydi. Xolbuki, rassom XV—XVIII asrlardagi musavvirlardan ayrim nusxa vositalarini tug‘ridan-tug‘ri o‘zlashtirib olgan (to‘q, moviy osmon, tuguncha shaklidagi bulutlar, orqa rang (fon) qo‘yuqligi, suvratlarda odam qiyofasining siyrakligi, kishilar qiyofasidagi turkcha ifoda, xarakatlar keskinligi). Aralash bo‘lmagan bo‘yo‘qlar majmuasi (asosan zarrin rang ustidan berilgan odamlar kiyofasining och qizil shakli, bundan tashqari yashil va kora rang) badiiy ta’sirchanlikka erishishga, mitti rasmlarga o‘zgacha joziba baxsh etishga, ayrim xollarda esa xos sirlilikka yordam beradi. Bu hususiyatlar Sh. Muxammadjonovning Alisher Navoiy dostonlari mavzuidagi «Farxod va Shirin» (1983 – yil), «Layli va Majnun sahroda» (1983 – yil), «Shoxnoma» mavzuidagi «Xuomo‘zning o‘limi» (1984 - yil) ishlarida o‘z ifodasini topgan. Bu yerda qadimiylik ramzi doirasidagi rangga qat’iy rioya qilingan, bu narsa tomoshabinga voqealar mazmunini ochib berish uchun muxabbat, quvonch, o‘lim tuyg‘ularining badiiy ta’eirini berishdek vazifani ham ado etadi.

Musavvir shartlilik kridasini tasvir kengligi munosabatida ham qo‘llaydi. Masalan, 1983 – yili o‘rta asr miniatyurasi ustalari an’analarida yaratilgan, jumladan, Firdavsiy “Shoxnoma”si mavzuidagi “Rustamning ajdaho bilan jangi” (1984 – yil) turkumi suvratlarida shu xolni ko‘rish mumkin. Bu o‘rinda

voqea – xodisalarni go‘yo qir ortidan ko‘zatib turgan odamlar qiyofasi o‘z o‘lchamlariga ko‘ra umumiy manzaradagi boshqa kismlardan xiyla ajralib turadi.

O‘lchamlarda bunday keskin farqning qo‘llanishi shu bilan belgilanadiki, musavvir manzarali suvratni chizishda syujetning yetakchilik ahamiyatidan kelib chiqqan.

Ma'lumki, o‘rta asr Sharq mamlakatlarida tasviriy san'at sohasida uyg‘onish ro‘y berdi. Ayniqsa, tasviriy san'atning mo‘jaz rangtasvir, ya'ni miniatyura deb nomlanuvchi turi, kitob grafikasi bilan bog‘liq holda keng rivoj topdi. Natijada Arab (Bag‘dod), Eron (Tabriz), Isfahon, Sheroz, Turk, Movarounnahr, Hindiston, Ozarbayjon, Hirot, Buxoro, Samarqand mo‘jaz rangtasvir maktablari paydo bo‘ldi. Bu maktablarning boshida Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali Ustoz Gung, Abdulloh ibn Fazil, Ota Miro‘q, Kesu, Ustod Shamsiddin, Abdul Boqi Tabriziy kabi bir qator rassomlar turar edilar.

Hirot (Afg‘oniston) mo‘jaz rangtasvir maktabi. XV asrda Hirotda shakllangan bu yo‘nalish nafis qo‘lyozma kitoblarga talab oshish natijasida vujudga kelgan. O‘sha asrning o‘rtalarida bu san'at Tabrizdan Sayid Ahmad, Xoja Ali, Samarqanddan Ja'far Tabriziy kabi musavvirlar kelganlaridan so‘ng shakltandi. Uning rivojiga Shohrux, Gavharshoh, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Alishe Navoiy kabi davlat arboblarining ta'siri katta bo‘ldi.

Hirotlik musavvirlar asarlarida umumiylikdan ko‘ra o‘ziga xoslik ko‘p bo‘lib, ularda odam tasviri zaminida bog‘lar, tiniq suvlar, ko‘l hovo‘z va koshinli binolar tasvirlanadi.

Hirot mo‘jaz rangtasvir maktabi vakillari qatoriga Mavlono Halil Mirzo, Shohruhiy, Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Xo‘ja Muhammad Naqqosh, Shoh Mo‘zaffarlarni kiritish mumkin.

Hirot maktabining eng yaxshi asarlari qatoridan Sa'diyning "Gutiston" (1427 yil), Navoiyning "Xamsa" (1431 yil), Firdavsiyning "Shohnoma" (1424-1431-yillar) asarlariga ishlangan rasmlar o‘rin olgan. Bu asarlar Sankt-

Peterburgdagi Ermitaj muzeyida, Tehrondaga Guliston saroyida saqlanmoqda. Hirot miniatyura maktabining yirik vakili Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini oʻrganshga alohida bob ajratilgan boʻlib, bu haqda qoʻllanmaning keyingi fasllarida bayon etilgan.

Behzodning yirik naqqosh Qosim Ali, Xoʻja Muhammad Naqqosh, Shoh Moʻzaffarlar bilan hamkorlikda Nizomiyning "Xamsa"siga ishlagan miniatyuralari Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

Behzod faqat kitoblar uchun rasmlar ishlabgina qolmay, balki portret, jang, ov, ziyofat, qabul marosimlari kabi koʻrinishlarni ham tasvirlagan.

Hirot moʻjaz rangtasvir maktabi Oʻrta Osiyo va Hindiston miniatyura maktablarining rivojsha katta hissa qoʻshgan.

Bagʻdod (Iroq) moʻjaz rangtasvir maktabi. X-XI asrlarda Fottgmiylar sulolasi, XIII asrning birnchi yarmida Suriya maktablari asosida tashkil topgan. Moʻjaz rangtasvir maktablarining yirik vakillaridan Abdullloh ibn Fazl, Yahyo ibn Mahmudlar dong taratganlar. Abdulloh ibn Fazl Dioskoritning "Farmoʻqologiya" kitobiga rasmlar ishlagan. Undagi dorilar qizil va toʻq, koʻk ranglarda bolib, shartli va ramziy belgilarda aks etgan. Musavvir Yahyo ibn Mahmud bezagan “Maqomat” nomli asarga bir qator moʻjaz rangtasvir asarlari kirgan. Bu asarda shoir Abu Sayidning sargoʻzashtlari, Xalifaning tantanali qabuli, olimlar anjumani, karvonning yoʻlda dam olishi, bayram marosimi, dengizdagi kema kabilar tasvirlangan. Mazkur rasmlar Parijdagi muzeylarning birida saqlanmoqda.

Bagʻdodli Vositiyning “Suvoriylar koʻrigi” va “Sayyor mashshoqlar” asarlari ham diqqatga sazovordir.

Sheroz moʻjaz rangtasvir maktabi. Bu maktabning dastlabki namunasi 1370 yilda yaratitgan boʻlib, u Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asariga ishtangan miniatyuralardir. Bu asar hozirda Turkiyaning Toʻpqopu saroy kutubxonasida saqlanmoqda. Shuningdek, Amir Xisrav Dehlaviyning “Xamsa” asariga ishlangan rasmlar ham shunday ishlar qatoridan oʻrin olgan. Asar Toshkentdagi OʻzFAning sharqshunoslik institutida saqlanmoqda (39-

rasm).

Moskvada Sharq xalqlari san’ati davtat muzeyida XVI asr musavviri qozi Ahmad ibn Mir Munshi al Husayn tomonidan yozitgan Sheroz maktabining rassom va xattotlari xaqidagi "Gulistoni hunar" nomli kitobi saqlanmoqda.

Tabriz mo‘jaz rangtasvir maktabi. Mazkur maktab XIV asr boshlarida Tabriz shahrida vujudga kelgan. Bunda 1522 yillarda Kamoliddin Behzod shoh Ismoil tomonidan saroy ustaxonasining boshlig‘i etib tayinlanishi katta ahamiyat kasb etgan. Natijada maxalliy badiiy an'analarning Hirot an'analari bilan uyg‘unlaShuvi uning Yanada rivojlanishiga yordam bergan. Mo‘jaz rangtasvir asarlarida ko‘p shaktli suvratlar, tabiat manzaralari haqqoniy ifoda etala boshlandi. Oqibatda Ota Miro‘q, Sulton Muhammad, Qosim Ati, Mirsaid Ali, Mo‘zaffar Ali, Mirzo Ali kabi musavvirlar Shuhrat qozondilar. Ular Nizomiy, Jomiy, Navoiy asarlarini chiroyli rasmlar bilan bezadilar. Ular orasida Ustod Sulto Muhammadning "Payg‘ambarning arshi a'loga chiqish" suvrati diqqatga sazvordir.

Tabriz maktabi vakillaridan biri Qosim "Alisher Navoiy va Sulto Muhammad Mirzo" noml asari bilan mashhur.

Isfahon mo‘jaz rangtasvir maktabi. Bu maktab Eron mo‘jaz rangtasvir maktabining asosiy yo‘nalishlaridan biri. U XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida shakllangan.

Bu davrda kitobiy tasvirlar bilan bir qatorda portretlar, janrli asarlar ham yaratilgan. Isfahon mo‘jaz rangtasvir maktabi asarlarida rangdorlik kamdek tuyo‘lsa ham, ushbu maktab vakillari tasvir tagida zarli ranglardan keng foydalanganlar. Shakllar yirik, manzaralar ancha aniq tasvirlangan. Bu maktabning yirik vakillari Rizo Abbosiy, Muhammad Qosim, Muhammad Yusuf, Muhammad Alilar bo‘lishgan. Mazkur san'at yo‘nalishiga Yevropa tasviriy san'ati o‘z ta'sirini ko‘rsatgan. Natijada asarlar mazmunida nasroniy dini mifologiyasi katta o‘rin egallagan. Bu ko‘proq Muhammad Zamon, Al Qulibek, Jabadar ijodiga xosdir. Rizo Abbosiyning "Cho‘pon", "Yigit portreti"

nomli asarlari ayniqsa mashhurdir

Isfahon portret janrining namoyandalaridan biri sifatida XIX asrning mashhur rassomi Mirzo Abul Hasanxon G'afforiyni ko'rsatish mumkin. U Italiyada ta'lim olgan bo'lib, Soniy-ul Mulk taxallusi bilan ijod qilgan.

XVIII-XIX asr Eron mo'jaz rangtasvirida jannat va do'zax, Muhammad payg'ambar hamda shia imomlarini tasvirlash odat tusiga kirgan. Bu davr rassomlari o'z asarlariga Yevropa rangtasvirining badiiy va texnik usullarini kiritib, ularni isloh qilganlar. Buni Isfahonda yashab ijod etgan Tabrizlik Ustod Sulton Muhammad tomonidan ishlangan "Payg'ambarning arshi a'loga chiqishi" nomli asarda, Nizomiyning "Xamsa" kitobi qo'lyozmasiga ishlagan rasmlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Turk mo'jaz rangtasvir maktabi. Bu maktab XV asrda keng rivoj topdi. Bu davrda Sulton Mahmud II o'z saroyiga ko'pgina musavvir va xattotlarni to'plagan. O'sha davrda to'zilgan "Fotih albomi" va "Istambul albomlari" mashhurdir. Ularda ko'proq lirik mavzular aks etgan. Ba'zi bir hujjatlarda ko'rsatilishicha, 1425 yilda saroy ustaxonasida 29 ta musavvir va naqqosh, 12 ta xalifa xizmat qilgan. Ular orasida eronliklar, arablar, cherkeslar, mojarlar, moldovanlar ijod qilgaliklari qayd qilinadi. Turk mo'jaz rangtasvir ustalari o'z ijodida Sharq mamlakatlari san'at maktabi ustalarining ish uslubidan keng foydalanganlar.

Turk maktabining yirik namoyandalari sifatida musavvir Usmon, Nigoriy, shayx Hamidullalarni ko'rsatish mumkin. Bulardan tashqari, turk sultoni saroyida O'rta Osiyolik va Xurosondan kelgan Bobo Naqqosh, Shayx Mustafo, Tojiddin Girebandiy, Abdulgani Og'a Mirak, Shayx Kamoniy, Shohquli, Jalolzoda Mustafo kabi musavvir va naqqoshlar ijod qilganlar. Quyida Jalolzoda Mustafoning "Sulton va uning a'yonlari" asari berilgan

Xusrav va Sulton Salim II portreti, ergakchi, qiziqchi La'linqabo portreti Usmon mo'yqalamiga mansubdir. Sulton Salim II nint qo'llanmasiga chizilgan suvratlar Nigoriy tomonidan ishlangan.

Nigoriyning "Sulton Sulaymon I portreti" asari Turkiyadagi To'pqopi

saroy kutubxonasida saqlanadi. Nigoriy Xayriddin, Barbarossa Salim kabilarning ham portretlarini ishlagan.

Turk maktabi asarlari namunalaridan Nizomiyning "Xamsa" asariga ishlangan Boysunkur Mirzo albomi Amir Temur va temuriylai avlodlari tasvirlangan rasmlar, Bahrom Mirzo albomi, Shoh Ismoish al'bomi To'pqopi saroyi kutubxonasida saqtanmoqda.

Hindiston mo'jaz rangtasvir maktabi. Bu maktab o'rta asrlarda Hindistonda shakllangan. U - Gujarot, Rajnut, Boburiylar, Dekan mo'jaz rangtasvir maktablariga bo'linadi. Ular orasida Boburiylar maktabi keng rivoj topgan. U asosan XV asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrlarda Eron va O'rta Osiyo mo'jaz rangtasvir hamda Yevropa, rassomchiligi san'atlari asosida kamol topgan. Bu maktablarning dastlabki qadamlari Shu yerda xizmat qilgan taniqli musavvir Mir Said Ali hamda sherozlik Abdusamad ijodi bilan bog'liqdir.

Boburiylar maktabining yorqin namunasi "Boburnoma" kitobida aks etgan bo'lib, u Moskvadagi Sharq xalqlari san'ati muzeyida saqtanmoqda. Bu maktabda yaratilgan asarlar dastlab kitoblarga ishlangan bo'lsa, keyinchalik ular mustaqil dastgoh san'at turiga aylandi."Boburnoma"ning rassomlari Kamoliddin Behzod, Shoh Mo'zaffar, Boysunkur Mirzo, Haydar Mirzolardir. Boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir va shoh bo'lish bilan birga yetuk xattot va benazir olim bo'lgan, Shuningdek, rassomchilikka juda qiziqqan.

Hindiston rassomchiligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan musavvirlar Mir Said Ali, Abdusamad Sheroziy, Basova, Do'st Devona, Disvinta, Farruhbeklardir.

Hindiston maktabi XVI asrda tarkib togan bo'lsada (Jaloliddin Muhammad Akbar, 1556-1605), lekin unga Bobur va Humoyun asos solganlar.

Bobo'rning o'g'li Nasriddin Muhammad Humoyun ham rassomchilikka qiziqshda otasidan qolishmagan.

U Saroy qoshida tashkil etilgan ustaxonaga o‘zi boshchilik qilgan. Ma'lumotlarga ko‘ra, u haftada bir kun ustaxonaga kelib, yashi ishlagan musavvirlarga tuhfalar bergan, oylik maoshlarini ko‘targan, ularni doimo himoya qilgan.

Rassomlardan Mir Said Ali "Nodir-ul Mulki Humoyun" unvoniga, Abdusamad Sheroziy esa "Shirin qalam" unvoniga sazovor bo‘lganlar. Ular "Qissai Amir Xamsa" nomli romantik afsonaga rasm ishlab, Shuhrat qozonganlar. Ustod Mansur esa "Nodir-ul asr" faxriy unvonga sazovor bo‘lgan. Shuningdek,
Kesu, La'l, Mukund, Miskina, Madku, Djanu, Jagan, Maxesh, Haribans, Sanvada, Tara, Rimlar ham hind mo‘jaz rangtasvirida Sharq va Ovro‘pa rassomchiligini rivojlantirishga katta hissa qo‘shib, o‘z ijodlarida perspektiva, yorug‘ va soya qonunlariga ham rioya qilishgan.

Ozarbayjon mo‘jaz rangtasvir maktabi. Ushbu maktab XIV-XVI asrlarda ayniqsa yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarildi. U o‘sha davrlardagi Ozarbayjon tarkibidagi Tabriz rassomchiligi asosida tashkil topdi.

XIV asrning ikkinchi yarmida Ozarbayjonning janubiy shaharlarini Sulton Uvas Jaloir egallab, u erda Ustod Shamsiddin, Abdulhay Junaid Bag‘dodiy, Rizo Abbosiylar ijodining rivojiga katta yo‘l ochib berdi.

Bu davrda Ozarbayjon tarkibidagi Tabrizda yashab ijod ettai mashhur rassomlardan biri Pir Said Ahmad Tabriziydir. Ba'zi bir ma'tumotlarga qaraganda, u Kamoliddin Behzodga ham ustoztik qilgan.

Safaviylar sulolasining asoschisi shoh Ismoil davrida adabiyot, san'at va madaniyag gurkirab rivojlandi. Bu davrda yaratilgan benazir durdonalar qatoriga Abdulqosim Firdavsiyning "Shohnoma", Sa'diy Sheroziyning "Bo‘ston", Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa" asarlarining va ularga ishlangan suvratlarni ko‘rsatish mumkin.

Shoh Ismoil vafotidan so‘ng uning o‘rniga vorislik qilgan shoh Tahmosib hukmronligi davrida mo‘jaz rangtasvir o‘zining eng yuks cho‘qisiga ko‘tarildi. Chunki, Tahmosibning o‘zi yoshligidan rassomchilik va

xattotlikka juda qiziqardi va bu davrda ustod Sulton Muhamma tashqari ustod Kamoliddin Behzod, Mirzo Ali Tabriziy, Ota Miro‘q, Mo‘zaffar Ati, Mir Said Ali, Siyovushbek va boshqa musavvirlar ham ijod etishgan.

## O‘rta Osiyo (Movarounnahr) mo‘jaz rangtasviri

Movarounnahr mo‘jaz rangtasvirining dastlabki namunalari Rashididdinning "Tarix to‘plami" nomli asarida aks etgan. Bu asar Toshkentdagi SharqShunoslik institutining kutubxonasida saqlanmoqda. Ko‘lyozmada bir qator mo‘g‘ul xonlarining qiyofalari tasvirlangan. XV asrdagi Sharq mutafakkirlaridan Firdavsiy, Jomiy, Navoiy, Sa'diy, Hofiz kabilarning kitoblari ham mo‘jaz rangtasvir asarlari bilan bezatilgan. Bu asarlarda rassomlar ko‘pincha o‘sha davr muhiti va kiyimlari, xon saroyidagi voqealar, jangu jadallar va qabul marosim-larini aks ettirishgan.

Shunday asarlardan bir qanchasi hozirgi kunda Istambuldagi To‘pqopi saroyi kutubxonasida saqlanmoqda.

XIV asr oxiri XV asr boshlarida Samarqandda ijod etgan musavvirlardan Xo‘ja Abd-Al-Haya va Pir Ahmad Bog‘ishqmoliylar mashhurdirlar.

Ba'zi ma'tumotlarga ko‘ra, Movarounnahr mo‘jaz rangtasvirining asoschisi sifatida Ustod Gung tilga olinadi hamda uni mashhur Jahongir Buxoriyning ustozi, deb qayd qilinadi.

Temur davri mo‘jaz rangtasviriga doir asarlar ichida Jomiyning "Oltin zanjir" nomli kitobiga ishlangan suvratlar alohida o‘rin tutadi. Mazkur asar Sankt-Peterburgdagi Saltiqov-Shchedrin nomli kutubxonada saqlanmoqda. Unda tog‘liq joydaga ov bilan bog‘liq ko‘plab manzaralar aks ettirilgan.

Ulug‘bek davrida musavvirlik qilib mashhur bo‘lganlar orasida Shahobiddin Abdulla va Zahiriddin Azharlar tilga olinadi, biroq ularning qanday asarlar yaratganliklari haqida ma'lumotlar yo‘q.

Ulug‘bek davrida yaratilgan asarlardan biri Abdurahmon as-So‘fiyning astronomik asariga ishlangan rasmlar diqqatga sazovordir. Unda bir qator

yo‘ldo‘zlarning harakati tasvirlangan bo‘lib, yo‘ldo‘zlar odam shaklida ifodalangan.

Alisher Navoiy davrida Hirotda san'at gullab-yashnay boshladi. Bu davrda Hirotda Kamoliddin Behzod ijod etdi. Kamoliddin Behzod uslubida ijod qilgan mashhur musavvirlardan biri Mahmud Mo‘zahhibdir. Mahmud Mo‘zahhib ijodida "Atisher Navoiy" portreti alohida e'tiborga sazovordir.

Mahmud Mazahhib tomonidan Navoiyning "Sirlar xazinasi" nomli asarlari ishlangan "Sulton Sanjar va kampir" suvrati ham nihoyatda mashhurdir. Navoiyning "Sirlar xazinasi" asaridagi suvratlarni Mahmud Mo‘zahhib musavvir Muhammad Chagri Muxassin bilan birgalikda ishlagan.

Samarqandlik musavvir Muhammad Murod Samarqandiy ham yuksak qobiliyat sohiblaridan edi. Mashhur "Shohnoma" ro‘yxatida uning bir yo‘z o‘n besh suvrati tilga olingan. Ayniqsa, uning asarlari orasida Xotifiyning Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlari haqidagi "Zafarnoma" kitobiga ishlangan suvratlari hamda "Siyovushning olovda sinalishi" nomli suvrati diqqatga sazovordir.

XVII asrda bir qator Orta Osiyolik rassomlar Xindistonda ijod etishdi. Ular orasida Davlat Muhammad Nodir Samarqandiy ham bor. U Hind mo‘jaz rangtasvir san'ati maktabining shakllanishida muhim o‘rin tugadi.

XIX asrda yashab ijod etgan Buxoro mo‘jaz rangtasvir san'ati maktabi vakillaridan biri Ahmad Mahdumning (Ahmad Kalla) nomi ham sharaflidir. Uning suvratlari orasida Bedil asarlariga ishlangan "Sevgi manzarasi", "Sahrodagi Majnun" nomli rasmlari ayniqsa mashhurdir.

Buxoro mo‘jaz rangtasvir san'ati maktabi vakillaridan Yana biri Ahmad Mahdumning shogirdi Abduxoliq Mahdumdir. U ham Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoniga suvratlar ishlab, o‘zidan avval o‘tgan hamkasblari ijodini mazmun, kompozisiya, rash, tasvirlash texnikasi jihatidan Yanada boyitdi.

## Lo‘kli miniatyura san’atining zamonaviy ruxdagi jarayonlari va uning ijodkorlari

O‘rta asr miniatyura ustalari qo‘llagan usulning keng tarqalgani haqida yetakchi san’atShunos tarixchilar G. Pugachenkova va L. Rempellar Shunday yozgan edilar: «Odamlar va jonivorlar qiyofalari tabiiy va me’moriy tasvir o‘zvlariga nisbatan ancha yirik ishlangan, qoya va daryolar, saroy va chodirlar odamlar shakliga qiyosan xaddan tashqari kichiklik qiladi, ularning oldinda, o‘rtada yo o‘zoqda joylanishi xech qanday axamiyat kasb etmaydi. Biroq Sharq miniatyuralarining sehrli olamiga kirgan har bir kishi bunday nomutanosiblikdan zarra xayratga tushmaydi, ular miniatyura uslubining tarkibiy qismi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Zero, uslub ma’lum badiiy usullar majmuasidan iborat ramziy tasavvurlarning ma’lum tuzilmasida yuzagakeladi va O‘rta Sharq xalqlarining butun bir badiiy dunyo qarashini o‘zida namoyon etadi».

Shomaxmud Muxammadjonov ijodi O‘zbekiston tasviriy san’atida butun bir oqimni shakllantirgan terai ildizga ega bo‘lgan va musavvir kashfiyotchining zamonaviy qarashi va maxorati bilan belgilangan yangi xodisa darakchisi bo‘ldi. Kitob minatyuralari yo‘qi Lo‘kli rangtasvir uslubida ado etilgan uning asarlariga xos xususiyatlardan biri oddiylikdir, Shu bilan birga ular betakrordir. Bu xususiyatlarga Yana rasm nazokati, oxang uynoqiligi, ranglar jushqinligi, kompozitsiya uyg‘unligi va gryaviy – falsafiy odangdorlik esh bo‘lib ketgan. Zamonaviy Lo‘kli miniatyura san’atida qadimgi musavvirlarning miniatyura an’analari izdoshlaridan biri yosh iste’dodli rassom Niyozaln Xolmatovdir. Uning izlashilariga xos bo‘lgan asosiy xususiyat Shundan iboratki, u issiq va sovuk ranglarni ravon uyg‘unlashtirgan xolda asarlar yaratadi. Rassom miniatyuralaridagi toza bo‘yoqlar bamisoli radir,udir emal singari qo‘yuq va burtiq bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Uning rasmlari ko‘rinishdan oddiy va puxta, bo‘yoq surishdagi soddalik esa xech bir o‘rtikcha o‘rinishlar yo‘qligidan dalolat beradi, tasvir lo‘ndaligi doirasida to‘zilgan suvratkesmasi royat mazmundor. N. Xolmatov

syujet mantig‘ini saqlaydi, u mavzuda nimani yoritish lozim bo‘lsa, ko‘pincha Shu narsani aks ettiradi. Rangtasvir yechimlarida ikkinchi darajali sanalgan tabiat manzarasi rassom tomonidan qayta talqin etiladi, uning ayrim o‘zvlari ifoda etilib, syujetda go‘yo maxsus, aloxida axamiyat kasb etadiganday tuyo‘ladi (toglar, daryo, ko‘l, gullar va h – k.). Inson chexrasini maxsus ifoda etar ekan, u tasvirlanmish qaxramonlar muayyanligini tanqidlagan xolda suvratdagi odamlar qiyofasini keskin chegaralaydi. Odamlar qiyofasi hajm jihatidan o‘z xususiyatlari bilan bir – biridan tubdan farq qiladi. N. Xolmatov ravonlik, zo‘r jushqinlikni ta’sirchanlik bilan uyg‘unlashtirib, qiyofalarni dadil joylashtirib, rang – barang insoniy tuyg‘ular — qayg‘u, quvonch, daxshat, yayrash, tushkunlik va ho‘qazolarni moxirlik bilan ifoda etadi («Xalk sayli», «Paranji yondirish»).

N. Xolmatov san’atida namoyon bo‘lgan tipologik yondashuv o‘rta asr miniatyurasi uslubiyati va ramziyligining qayta tiklanishiga qaratilgan bo‘lib, shu bilan birga monumental fikrlashning yalpi faollaShuviga yo‘naltirilgan. Shu munosabat bilan katta xajmdagi suvratlarga ishlangan naqShu nigorlar xaqida gapirmasdan o‘tib bo‘lmaydi. Bu yerda u doimo ijodiy va o‘tkir zamonaviy sezgirlikdan foydalanib, miniatyura an’analarida ko‘p narsa kashf etdi, tehnik ma’noda juda ko‘plab dadil fikrlarni, tajribaviy sinovlarni amalda qo‘lladi. Yangilikni bilish yo‘lida musavvir o‘zining favqulodda murakkab ishlarida nozik badiiy sezgirlik va ulkan intilish tuyg‘usini zoxir etdi. Uning bunday ishlarida rang timsolligi, obrazlar ramziyligi va syujetning falsafiy teranligi o‘z ifodasini topgan. Mana Shu yo‘nalishda ijodkorning xalq xazilini, odamlar turmushini, maxalliy urf – odatlarni o‘ziga xos tarzda ifoda etuvchi Yana bir aloxida xususiyati shakllanadi. Bu xam uning 1982 – 85 yillarda yaratgan “Dosil bayrami”, “Bexzod”, “Dutorchi”, “Surnaychi”, “Doirachi”, “Nasriddin Afandi” va ho‘qazo asarlarida ko‘zatiladi. Bu asarlarda musavvir gullarni katta xajmda, xatto odamlardan xam kattaroq, qilib tasvirlaydi, Shunisi xam borki, huddi O‘zbekistan

xalq, amaliy san’atida bo‘lgani kabi gullarni g‘oyat yorqin bo‘yoqlarda tasvirlaydi.

Suvratlar yechimini o‘ziga xos maxorat bilan topishda, syujetni timsollashtirishda tehnik usullardan o‘zgacha foydalanishda Valentin Lugovskoy ijodi bir qadar boshqacha yo‘ldan boradi. U shartlilikka, tekislik uslubiga butun moyilligi bilan o‘z asarlarida ma’lum muayyanlikka intiladi, bu timsollar talqinida bo‘lgani kabi har bir ayrim ishning umumiy qiyofasida xam o‘z ifodasini topadi. Maishiy va tarixiy mavzularni aks ettirishga ham u alohida e’tibor bilan qaraydi. Odatda, rassom odamlar qiyofasini aks ettirilayotgan davr liboslarida tasvirlaydi, chor atrofi esa tegishli zamonga oid muayyan tarixiy aniqlikka ega me’moriy asari – atiqalar, buyumlar qurshab turadi. Shu asosda Alisher Navoiyning “Farxod va Shirin” dostoni asosida ishlangan “Farxrd Yunonistonda” (1983 – yil) va “Farxrdning vazir bilan suxbati” (1983– yil) asarlari diqqatga sazovordir. Bu miniatyura ijrochilikdagi bir qadam quruqligi bilan ajralib turadi. Kishilarning qiyofalari kesma shaklda berilgan. Ular chexrasining yirik qilib ishlanishi ta’sirchanlikni kuchaytirib, xuddi katta qilib ko‘rsatuvchi oynadan qaragandek taassurot tug‘diradi.

Toza, ko‘rishtirmagan bo‘yoqlarning yorkin maxraji tufayli V. Lugovskoyning mitti suvratlari Yanada ta’sirli chikkan. Ayniqsa, rassom sevib ishlatadigan zumrad (yashil) rang oq, va moviy rang bilan yaxshi uyg‘unlashadi. U odatda o‘z rasmlarida me’moriy fonga, milliy uslubdagi nozik chiziqlarning sinchkovlik bilan ishlanishiga, qoshinlardagi xandasaviy chiziqlarning nazokati yo‘qi ichki devor sirtlaridagi naqshlar nafosatiga katta e’tibor bilan qaraydi. Uning asarlarida ko‘pincha gisht tushalgan xovlilar, favvorali xovo‘zchalar, adl sarvlar, tarvaqaylagan chinorlar, ochiq, ayvonlar tez – tez ko‘zga tashlanadi. Ijodning bu usullari to‘laligicha rassomning «Farxodning Qaxraman bilan" oliShuvi» (1983 – yil) asarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bu yerda V. Lugovskoy XVI asr birinchi yarmidagi. O‘rta Osiyo miniatyura maktabining an’analarini qanchalik yaxshi bilishini isbot eta olgan. Topilgan yo‘l o‘zining aniqligi va kompozitsiyasining yoshligi bilan

ajralib turadi. Xuddi O‘rta asr miniatyurachilari singari rassom o‘ziga xos samaradorlikka, ta’sirchanlikka erishadi, bunda inson qiyofasi ko‘rinmay ketadigandek bo‘lib tuyo‘ladi, u asosiy e’tiborni chexralarning ramziy talqichiga jalb etish maqsadida odamlar miqdorini ataylab oshirib yuboradi.

## 1.2. Sharq badiiy madaniyatida o‘zbek miniatyura rassomlarining ijodi

Sharq sha’riyati klassiklari asarlaridan an’anaviy sahna manzaralari bilan bir qatorda O‘zbekiston miniatyura rassomlari ijodida bugungi kunda adabiy mavzular bilan "yo‘g‘lik bo‘lmagan, zamonaviy xayotdan olingan manzara va insonlar tasviridan iborat su’rat asarlari yaratish ham ko‘proq, o‘rin egallaydi. Bunday yo‘nalish xususan rassomlar A. Aldashevning «Toshkent 2000 yilda» (1982 – yil), N. Xolmatovning «Xalk sayli» (1981 – yil), «Farg‘ona – O‘zbekiston kelini» (1982 – yil) hamda tasviriy publitsistikaga moyil boshqa qator musavvirlar ishlarida yaqqol o‘z ifodasini topgan.

Xalqimizning fashizm ustidan qozongan g‘alabasining 40 yilligiga rassomlar D. Eminova va V. Lugovskoylar miniatyura vositasida «1941 — 1945 yillar» deb nomlanuvchi turkum yaratdilar. Uch qismga Sulingan yahlit asarda o‘zbek qishloq xayotidan lavhalar o‘rin olgan. Qadimgi miniatyura xomdalaridan boxabar musavvirlar mavzu ma’nosini ochishda mitti su’ratning Yana bir muxim jixatidan foydalanadilar. Bu ham bo‘lsa, xar bir bo‘lakni tasvirlashda batafsil xikoya qilish bilan timsollar yaxlitligiga erishishdir. Aloxida – aloxida olingan voqea band tasvirning an’anaviy usuldagi ornamental bo‘linishi xam Shunga kiradi. Mavzuni ochishga yordam beruvchi xoshiyalardan, bir xil tusdagi rasmdan moxirona foydalanish, tasvirlanmish odam qiyofasidagi xatti – xarakatlarning grafik ijrolari, koloritdagi uyg‘unlik va xatto‘qi bir maromdagi rangning aniqligi xam Shu yerda mavjud. Bu ishda foydalanilgan moviy, zumrad, yoqut, jigarrang, qora ranglarning xammasi xuddi qadimgi miniatyura ustalari erishgani kabi asosiy ranglar xisoblanadi. Ortiqcha jimjimadorlik bilan murakkablashtirilmagan shakllarni nozik va

erkin tarzda yuzagakeltira borib, bu ranglar nafaqat shartli taassurotni qo‘llab – ko‘ltiqlaydi, balki qadimgi musavvirlarning mitti naqShu nigorlari bilan oson uyushib ketishga da’vat etadi.

Asarning asosiy xususiyati — bu undagi ko‘tarinki, epik to‘zilishning bo‘rtib turishi, xayrlaShuvdagi iztiroblardan tortib frontga yordam berishga tanyorlik va qatiyatgacha bo‘lgan murakkab tuyg‘ular musavvirlar tomonidan aynan gavdalantiriladi. Ular go‘yo su’ratda zamonni ko‘rsatib turgandek, voqealar silsilasini namoyon etgandek, urushga ketib, nusrat – shon ila qaytgungacha bo‘lgan xissiy kechinmalar bilan xamoxang jaranglayotgandek tuyo‘ladi. Mualliflar manzarani uchlik su’rat chizgandek go‘yatda keng olishadi. Asosiy saxna chekkalaridagi tillarang, oxra bilan chizilgan manzaralar tug‘yonni, qaxrug‘azabni va xatto‘qi fojia ma’nosini anglatib turibdi. Lavxalar keskin tarixiy xujjat sifatida emas, balki uning ulug‘vor qaxramonlik-poetik ramzi sifatida talqin etilgan. “1941 — 1945 yillar” — bu urushda g‘alaba va qaxramonlikka chorlovchi, xalq xayotidagi muayyan voqea – xodisalar xaqida xikoya qiluvchi asardir. Bu yerda lirizm bilan epiklik bir – biri bilan chatishib ketgan bo‘lib, mavzuni qanday ishlab chikish va tasviriy vositalarni qanday tanlashni oldindan belgilab beradi. Tabiat lavxalari, me’moriy ko‘rinishlar miniatyura an’analariga muvofiq tarzda, ammo yangicha talqin bilan ifoda etilgan bo‘lib, su’ratda aloxida axamiyat kasb etgan.

Keng manzara (panno) janri talablariga rioya qilgan, uning xususiyatlariga bo‘ysungan xolda ayrim miniatyura musavvirlari eng avvalo turli – tuman ranglar birikmasiga asoslangan tekislik va bezaklik qoidalaridan ataylab voz kechadilar. Ular o‘z ishlarida asosan grafik usullardan foydalanib, rasmga zo‘r beradilar, bunda ayniqsa xajmni ishlab chiqishga katta e’tibor va ishtiyoq bilan murojaat qiladilar. Odam qiyofasidagi yo‘qi boyoq shaklini beruvchi chiziq Shunchaki kontur vazifasinigina bajarmaydi. Mo‘yqalam bilan o‘ziga xos tarzda bo‘yoq «chaplagan», qiyofalarga xajmdorlik va jon bag‘ishlagan xolda musavvirlar rasmga rangtasvirlik ato etadilar. Shuning bilan birga

